

Komplayens xizmati tomonidan 2022-yilning o'tgan 5 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

MA'LUMOT

I. Tashkiliy masalalar.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o'rinlarda – Jamiyat*)ning shtatlar jadvaliga asosan “Komplayens xizmati”ga **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo'lib, shundan 9 tasi xodimlar bilan to'ldirilgan. Joriy yilning iyun oyida vakant lavozimlarga ochiq tanlov o'tkazish yuzasidan e'lonlar beriladi.

Xodimlar tomonidan “onlayn” malaka oshirish kurslariga qatnashib, bilim salohiyati oshirilishi natijasida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasining “Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish” yo'nalishida **9 ta** va “Aktivlarni deklaratsiyalash korrupsiyani aniqlash indikatori” yo'nalishida **8 ta**, “Xaridlar sohasida korrupsiya va firibgarlikni oldini olish” yo'nalishida **2 ta** sertifikatlar olindi. Bundan tashqari, Moliya vazirligining “Davlat xaridlarini amalga oshirish” yo'nalishida **3 ta** va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining sohaga oid **2 ta** sertifikatlar olindi.

Jamiyatning 2022-yil 14-martdagi ISO 37001:2016 xalqaro standartining muvofiqlik sertifikatini olish yuzasidan **Yo'l xaritasi** tasdiqlanib, uning ijrosi bo'yicha **5 ta** ichki idoraviy hujjat ishlab chiqildi (*Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Komplayens xizmati nizomi, Xodimlarni ishga qabul qilish tartibi, Odob-axloq kodeksi, Xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom*).

Komplayens xizmati tomonidan jami **449 ta** ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan **20 ta** takliflar ishlab chiqilib, **9 tasi** amaliyotga joriy etildi va **8 tasi** o'rganib chiqilmoqda.

Xaridlar sohasida “Potensial tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarining dastlabki malakasini baholash bo'yicha tashkil etilgan komissiya” (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **15 ta** tender hujjatlari bo'yicha **40 ta** tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqildi. Shundan **1 ta** holatda manfaatlar to'qnashuvi oldi olindi.

Jamiyatning rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma'lumotlar” bo'limlari joriy etildi. Mazkur bo'limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallar hamda Komplayens xizmatining mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi.

O'tgan davr mobaynida jamiyat xodimlari bilan **6 marotaba** huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Xususan, 4 ta uchrashuv va 1 ta so'rovnoma o'tkazilib, 1 ta taqdimnoma muhokama etildi.

Fuqaro murojaatlari va topshiriqlarga asosan jami **8 ta** o'rganish hamda xizmat tekshiruvi o'tkazilib, 5 tasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. Xususan, 1 nafar rahbar xodim ma'muriy va 4 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortildi.